



## TA'LIMY SAYTLARDA AXBOROT YOKI MA'MURIY MUROJAATLARNING MIKROMATNLARDA IFODALANISHINING PRAGMALINGVISTIK HUSUSIYATLARI

**Raximova Feruzaxon Toxirjon qizi**

*FarDU 2-bosqich magistranti*

[angel\\_smile\\_92@mail.ru](mailto:angel_smile_92@mail.ru), +998903010610

**Mamajonova Mahbubaxon Mirzayevna**

*FarDU Xorijiy tillar fakulteti katta o'qituvchisi*

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Britaniya maktablari direktorlarining o'z ta'limiy saytlarida e'lon qilingan nutqlarining mikro matnlar orqali ifodalanishi pragmalingvistik yondashuv asosida o'rganildi. Ushbu maqsadda Britaniya maktab ta'limiy saytlaridan ixtiyoriy tanlash asosida 10 ta ma'muriy murojaatlar tanlab olinib, pragmatik tahlil qilinib, natijalar olindi. Bunday turdagi matnlarning mikromatnlarda ifodalnishi pragmatik nuqatai nazardan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### PRAGMALINGUISTIC CHARACTERISTICS OF EXPRESSING INFORMATION OR ADMINISTRATIVE WELCOMING SPEECH IN MICROTEXTS ON EDUCATIONAL SITES

**Abstarct:** In this article, the expression of British school principals' speeches published on their educational sites through minimal texts was studied based on the pragmalinguistic approach. For this purpose, 10 administrative appeals were selected based on voluntary selection from British school educational sites, pragmatically analyzed and results were obtained. The presentation of these types of texts in microtexts is of great importance in achieving the intended goal from a pragmatic point of view.

### ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ВЫРАЖЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ ИЛИ ПРИВЕТСТВЕННЫХ ОБРАЩЕНИЙ ШКОЛЬНОЙ АДМИНИСТРАЦИИ В МИКРОТЕКСТАХ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ САЙТАХ

**Аннотация:** В данной статье на основе прагмалингвистического подхода исследовано выражение речей директоров британских школ, опубликованных на их образовательных сайтах, через минимальные тексты. Для этого было отобрано 10 административных апелляций на основе добровольного отбора с британских школьных образовательных сайтов, прагматически проанализированы и получены результаты. Представление таких типов текстов





в микротекстах имеет большое значение в достижении намеченной цели с прагматической точки зрения.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, pragmalingvistika, veb-sayt, mikromatn, intension tahlil, xushmuomalalik nazariyasi, nutqiy akt.

**Key words:** pragmatics, pragmalinguistics, website, microtext, intentional analysis, politeness theory, speech act.

**Ключевые слова:** прагматика, прагмалингвистика, сайт, микротекст, интенциональный анализ, теория вежливости, речевой акт.

## KIRISH

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar hamda veb-saytlar orqali tarqalayotgan ma'lumotlar boshqa ma'lumot manbalari: televideniya, radio yoki gazeta-jurnallardan ko'ra tezroq insonlar orasida tarqalib, ularning bilish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Universitet yoki maktab veb-saytlari ta'lim muassasalarining eng muhim qismlaridan biri hisoblanib, ular o'quvchi va ota-onalar uchun o'ta muhim ta'sir doirasiga ega. Yaxshi faoliyat olib boruvchi veb-sayt talabalar, o'quv ishlari va boshqaruv apparati o'rtasidagi ichki aloqalarni yaxshilaydi, shuningek, ota-onalar bilan yaqindan munosbat o'rnatiladi. Veb-saytga qo'yilgan har bir belgi, rasm yoki uning nomi, hattoki sayt dizayni, tanlangan ranglar o'sha ta'lim muassasasi to'g'risida qo'shimcha axborot berib turadi. Asosiy axborot esa minimal matnlar orqali e'lonlar tarzida yoki qisqa xabarlar tarzida berib boriladi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida tan olingan pragmalingvistikaning muammolaridan biri aynan matn masalasidir. Bugungi kunda tilshunoslar axborot va reklama matnlarining tahliliga, ularning pragmatik hamda kognitiv xususiyatlarini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqdalar.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pragmalingvistika tilshunoslikning yangi amaliy va nazariy bir tarmog'i bo'lib, u insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni o'rganadi. Pragmatika grekcha "pragmos" so'zidan olingan bo'lib, "ish", "harakat" ma'nolarini beradi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo'llanishini o'rganadi. Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.[Hakimov.M, 2013:6]. Tilshunoslikda pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqishida Ch.S.Pirs g'oyalari, J.R.Ostin, J.R.Serl va Z.Vendlerning mantiqiy-falsafiy qarashlari asnosida yuzaga kelgan nutqiy akt, P.Graysning ma'noning pragmatic tahlili, L.Linskiy, J.R.Serl, P.F.Strosonlarning referensiya nazariyalari ta'siri bilan uzviy bog'liqdir.

Yaqin yillarda rus tilshunosligida reklama va axborot matnlari pragmalingvistikasiga oid ko'plab keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Dyakova.E.Y o'zining "Britaniya ta'lim sohasidagi reklama nutqida polikodli matnlar" mavzusidagi dissertatsiya ishida "Yaqinda alohida o'rganish mavzusiga aylangan





Internetning kommunikativ salohiyati diskursiv tadqiqotlarning pragmalingsvistik jihatidan ham qiziq. Yozma matn, rasm, tovush, animatsiyani birlashtirishga imkon beradigan yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi individual tarkibiy qismlarning har biriga shaxsga ta'siri, ularni birlashtirishning kognitiv mexanizmlari va boshqalar bilan bog'liq ko'plab nazariy savollarni tug'diradi",-deb yozadi. [Дьякова Е.Ю, 2011]. Tadqiqotchi birinchi marta oliy ta'lim sohasidagi polikodli ingliz tilidagi reklama matnini ko'p qirrali o'rganishni amalga oshiradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi haqiqiy materialning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanib, Buyuk Britaniya universitetlarining veb-saytlari kognitiv-diskursiv, ijtimoiy-pragmatik va semiologik pozitsiyalardan tahlilga tortiladi.

2013-yilda esa Uxova.L.V "Reklama matnining samaradorligini o'rganishning nazariy muammolari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida reklama matnining samaradorligi muammosi perlokutiv tilshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilinadi, uning fikricha, ommaviy aloqaning samaradorligi nafaqat xabarning o'ziga xos xususiyatlariga, balki individual idrok etish omillarining umumiylikiga ham bog'liq. Axborotni elakdan o'tkazadigan "filtr" funksiyasi ma'lum bir ijtimoiy guruhga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy stereotiplar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalari inson ongi tomonidan sintez qilingan dunyo tasviriga kuchli ta'sir ko'rsatadi va bu asl haqiqiy voqelikni "matnli haqiqat" bilan almashtiradi. [Ухова.Л.В, 2013]. Tadqiqotchi o'z ishida reklama matnini institutsional va intensional jihatdan ko'rib chiqishni taklif qiladi. Unga ko'ra, institutsional reklama nutqi ekstralingvistik mezonga asoslanib, ommaviy kommunikatsiyalarni tashkil etish qonunlariga boysunadi hamda uning maqsadi, qabul qiluvchisi va aloqa natijasi kabi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Intensional reklama nutqida esa qabul qiluvchini muhim kognitiv, refleksiv, hissiy va talqin jarayonlariga ta'sir qilib, ularni qo'zg'atadi va uning konativ (xulq-atvor) reaksiyalarini yuzaga kelishini ta'minlaydi. [Ухова.Л.В, 2013].

Turkologiyada ham pragmalingsvistika sohasiga doir ilmiy izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Ulardan Kalbike Esenova, qozoq tilshunosi, 2017-yilda "Pragmalinguistic studies in linguistics" nomli monografiyasini e'lon qildi. Ushbu monografiyada qozoq media tekstini o'rganishda asosiy pragmalingsvistik yondashuvlar, mediatekst turlari va medialingsvistikaning asosiy muammolari yuzasidan olib borgan izlanishlari hususida atroflicha to'xtalib o'tadi. Tadqiqotchi Mass medianing rivojlanishi axborot maydonida turli ijodiy izlanishlar olib borishga keng imkoniyatlar ochganligini ta'kidlagan holda bunga ikkita asosiy sababni keltirib o'tadi. Birinchidan, sovet senzurasining yo'q qilinishi hamda mustaqillik bilan bir qatorda ijodiy erkinlikka erishilganligi, ommaviy axborot vositalarining xilma-xilligi tufayli matbuot xizmatining bozor sharoitidagi yangi tendensiyalarining yuzaga kelganligi, shuningdek, axborot maydoni raqobatbardoshligining oshganligi bilan tavsiflansa, ikkinchi sabab esa ommaviy ongning yangi bosqichga ko'tarilganligi,





mavjud auditoriyaning ommaviy axborot vositalariga bo'lgan talabi ortishi va didining o'sganligi bilan xarakterlangan.[Esenova K, 2017:3]

Taubayev.Z.T "Eponyms in political discourse: pragmalingvistic aspect" nomli doktorlik ishida eponimlarni siyosiy nutqning pragmatik komponentlari sifatida tadqiq etadi. Buning uchun qozoq, rus va ingliz tilidagi zamonaviy siyosiy nutq materiallari asos qilib olingan va ulardagi eponimlarning referent manipulyativ hususiyatlari, pragmatik ta'sirchanlik salohiyati, presuppozitsiya hodisalari izchil o'rganilgan. Tadqiqotchi "Siyosatchilarning nutqlarida eponimlarning pragmatik salohiyati yuqori. Ular davlatning ijobiy tashqi qiyofasini yaratish va saqlab qolish uchun eponimlardan foydalanadi. Uch tilda o'tkazilgan assotsiativ tajriba natijasida eponimlar turli milliy lingvomadaniy muhitlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi",- degan xulosaga keladi.[ Taubayev.Z.T, 2019:160]

O'zbek tilshunosligida olimlar o'tgan asrning 90- yillaridan boshlab matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar. Bu o'rinda B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o'ziga xos belgilari matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari, matn yaratish muamrnolari ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar haqida ma'lumotlar beriladi.[Qurbonova.M, Yo'ldoshev.M, 2014]

Pragmalingvistikaga oid ishlarning debochasi sifatida esa Sh.Safarovning 2008-yilda e'lon qilingan "Pragmalingvistika" monografiyasini e'tirof etish mumkin. Mazkur monografiya tilshunoslik fanining nisbatan yangi sohasi bo'lgan pragmalingvistikaning bugunga qadar erishgan yutuqlarini umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan. Bu tadqiqot pragmalingvistikaning "zurriyotlari" bo'lmish etnopragsmatika, sotsiopragsmatika, siyosiy pragsmatika va boshqa qator ilmiy yo'nalishlarning mamun-mohiyati va amaliy ahamiyati to'g'risida keng ko'lamdagi ilmiy materiallar jamlangan ilk tajribalardandir. [Сафаров III, 2008:2]

O'zbek tilshunosligidagi yana bir yirik pragmalingvistika sohasidagi adabiyotlardan biri professor M.Hakimovning 2013-yilda e'lon qilingan "O'zbek pragmatikasi asoslari" monografiyasi bo'lib, u tilshunoslikda yetarlicha tadqiq etilmagan pragmalingvistika muammolariga bag'ishlangan. Ishda lingvosemiotikaning tarkibiy qismlari hisoblangan semantika, sigmatika, sintaksis, sintaktika va pragmatikaning umumnazariy masalalari yoritilgan. Belgining mantiqiy, falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pragmalingvistik hususiyatlari tahlil qilingan. [M.Hakimov,2013]

Matn muammolari tadqiqida pragmatik yondashuv jihatidan yana bir salmoqli ish S.Boymirzayevaning "O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi hisoblanadi.[2010] Mazkur doktorlik ishida matnning kategorial belgilari, matnning kognitiv- diskursiv xususiyatlari, matnning pragmativ mazmuni, matnni tushunish muammosi kabi qator masalalar kun tartibiga qo'yilgan. Bu tadqiqot matn





kategoriyasiga inson kognitiv faoliyati sifatida yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ana shu jihati bilan matn tilshunosligi fanining rivojiga munosib hissa qo'shadi. [Qurbonova.M, Yo`ldoshev.M, 2014]

Shu tariqa o'zbek tilshunosligida ham matnning pragmatik muammolarini tadqiq etish yuzasidan salmoqli natijalarga erishildi. Endigi tadqiqotchilar oldidagi vazifa erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlab, matn tilshunosligi muammolariga doir monografik tadqiqotlarni kuchaytirish, matn turlari va ularning pragmatik imkoniyatlari kabi masalalarni keng miqyosda tadqiq etishdan iboratdir.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Ushbu maqola uchun Buyuk Britaniyaning 10 ta maktab veb-saytidan shu maktablar direktorlarining ommaga, ota-onalarga murojaat nutqlari tanlab olindi. Ular 126 tadan 503 birlikkacha bo'lgan oraliqdagi so'zlardan iborat matnlar bo'lib, 200 dan ortiq belgiga ega matnlar 40 tadan 65 tagacha so'zdan iborat ixcham formatdagi mikromatn bilan ifodalangan. Uning yonidan "read more" tugmachasi orqali murojaatning to'liq shaklini ko'rish mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan bir qarashda o'qib tushuniladigan matn ko'pchilik tomonidan o'qilishiga va diqqat-e'tiborni tortish hususiyatiga ega bo'ladi.

Ushbu matnlar uslubiy jihatdan rasmiy matn hisoblanib, uning pragmatik jihatdan o'ziga xos hususiyatlari o'z ishtirokchilari - adresant va adresatiga egaligi, nutqiy muloqot jarayoni va uning maqsadiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunda matn adresantlari - nutq egasi yoki ma'lumot uzatayotgan tomon - maktab ma'muriyati direktorlari bo'lsa, adresat esa tinglovchilar - shu maktabga qiziqish bildirayotgan auditoriya, ya'ni talabalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi vasiylar bo'lishi mumkin. Biz ushbu matnlarga reklama matnlari sifatida qarashni taklif qilamaiz. Britaniya ta'lim tizimida o'ziga xos aksiologik tizim sifatida shakllangan ta'limiy veb-saytlarda maktab direktorlarining iliq do'stona nutqlarining matn yoki video nutq sifatida joylashtirishi o'zaro "yashirin muloqot"ning yuzaga kelishini ta'minlaydi. "Qanday maktab?", "Qanday qulayliklari bor?", "Farzandimga nima beroladi?", "Nima uchun bu maktabga farzandimni berishim kerak?" kabi savollar girdobida turgan ota-onalarga maktab direktorining aniq, ixcham va ularni shu maktabni tanlashga undovchi nutqi javob bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Tanaka shunday yozadi: "Yashirin muloqot o'zaro bog'liq muammolarga javobdir. Reklamachilar ishontirish yoki ta'sir qilish vazifasini bajaradilar" [Velasco.M.S, 2006]. Bunda yashirin muloqot orqali aynan shu nutq doirasida, uzatilayotgan axborot doirasida muammosi bo'lgan insonga yechim taklif qilinadi. Ota-onalarga farzandlarini o'qitish uchun eng yaxshi maktab kerak va har bir maktabda turli xildagi bir-biridan farq qiluvchi o'ziga xos taraflari bor. Bu o'rinda veb-saytlarda e'lon qilingan administratsiya murojaatlari o'z maktablarining boshqa maktablardan ustun jihatlarni ta'kidlagan holda ota-onalarni eng yaxshisi mana shu maktab ekanligiga ishontirish va farzandini shu maktabda o'qitishga undash vazifasini bajaradi.





Bunday murojaatlar xushmuomalalik tamoyiliga asoslangan bo'lib, nutqda muomala etiketining norma va qoidalaridan unumli foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. XVIII asr boshlarida Yevropa madaniyatida xulq-atvor va tarbiya standartlari rivojlandi. Bunga faylasuf Lord Shaftesburyning jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqotda xushmuomalalikning tabiati haqida yozganlari katta ta'sir o'tkazgan. U xushmuomalalikni "boshqalarga yoqish san'ati" deb ataydi va shunday yozadi: "Xushmuomalalik - so'zlarimiz va harakatlarimizning epchil boshqaruvi deb ta'riflanishi mumkin va biz bu orqali boshqalarni o'zimiz va ularning o'zlari haqida yaxshiroq fikrga ega qila olamiz"[ Klein Lawrence ,1984]

Keyinchalik P.Braun va S.Levinsonlar tomonidan xushmuomalalik nazariyasi taklif qilindi. Bu xushmuomalalik tushunchasiga asoslangan bo'lib, insonning o'z-o'zini qadrlashi yoki ijtimoiy o'zaro munosabatlarda ijobiy ijtimoiy qadriyatlarni samarali ravishda talab qilishga qaratilgan harakatlar sifatida talqin etiladi. Ularning qarashlari olimlar tomonidan ko'plab tanqidlarga uchraganiga qaramasdan, ularning ishlari keying izlanishlar va xulosalarga asos vazifasini bajargan. Ular pozitiv va negativ xushmuomalalik strategiyalarini ajratishgan.

Pozitiv xushmuomalalikda o'zaro masofalar yaqin bo'lganda yuzaga kelgan muloqotda o'z aksini topadi. Masalan:

- Hey, mate, could you lend me 3 dollars? – Hey, do`stim, menga 3 dollar berib tur.
- You and I are going swimming together. – Siz bilan men birga suzishga bormoqchimiz.
- Can I have your pen? – Ruchkangizni olsam bo`ladimi?

Salbiy xushmuomalalik masofadan o'zaro rasmiy muloqot ishtirokchilari orasida paydo bo'ladi va tinglovchini u yoki bu harakatni qilishga majburlash hususiyatidan yiroq bo'ladi. Ma'ruzachining majburlashidan qochishga urinishi orqali tinglovchiga yuzma-yuz tahdid qilish xavfi kamayadi.

- "I hope that our website conveys what makes The Hampshire School Chelsea so special, however, there is no better way to understand what we offer than by visiting us. I look forward to welcoming you"(Richard Lock, Head of The Hampshire School Chelsea)

- Umid qilamanki, bizning veb-saytimiz -The Hampshir School Chelsea maktabimizni shu qadar o'ziga xos qiladi, ammo biz nimani taklif qilayotganimizni tushunish uchun bizning maktabimizga tashrif buyurishdan ko'ra yaxshiroq yo'l yo'q. Sizni kutib olishni intiqlik bilan kutaman.

- "I am delighted that you have expressed an interest in joining Royal Russell School"(Head, Chris Hutchinson)

- Royal Russell maktabiga kirish istagingizni bildirganingizdan xursandman.

- "I am so excited to lead the Sixth Form because it is the culmination – and most important – two years of our mission to nurture and empower the next generation of young women to go and be whatever they want to be"( Luke Benedict)





- Men Oltinchi sinfga rahbarlik qilishdan juda xursandman, chunki bu yosh ayollarning keyingi avlodini tarbiyalash va ularga o'zlari xohlagan narsa bo'lish imkoniyatini berish bo'yicha bizning ikki yillik missiyamizning cho'qqisi va eng muhimi.

Nutqiy etiket haqida gap ochilganda N.I.Farmonovskaya ishlarini aytib o'tmasa bo'lmaydi. U to'plagan materialni tematik jihatdan o'n besh guruhga bo'lingan birliklarni qamrab oladi: 1) murojat, diqqatni jab qilish; 2) salomlashish; 3) taklif; 4) tanishuv; 5) iltimos, maslahat, taklif; 6) rozilik va so'rov va taklifga javoban rad etish; 7) suhbatdoshning fikriga rozi yoki inkor bildirish; 8) kechirim so'rash; 9) shikoyat; 10) tasalli, hamdardlik; 11) iltifot, maqullash; 12) norozilik, qoralash; 13) tabrik, tilak; 14) minnatdorchilik; 15) xayrlashish;

Demak, bunda biz tahlil qilayotgan matnlar mazmun jihatidan birinchi guruhga kiradi.

Robin Lakoff o'zaro munosabatlarni tasvirlashda xushmuomalalik qoidalarini hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi va o'zining qoidalarini taqdim qiladi: o'z fikringizni yuklamang, suhbatdoshga tanlash huquqini bering, suhbatdoshni o'zingizga moslashtiring, do'stona munosabatda bo'ling. [Lakoff 1973]. 1975 yilda Lakoff xushmuomalalik qonuniyatini yaratadi. Unga ko'ra xushmuomalalikni rasmiylik, hurmat va do'stlik tamoillariga asosan yuzaga kelishi aytib o'tadi.

**Rasmiylik:** o'zingizni uzoqroq tuting. Bunda suhbatdosh bilan oraliq masofani saqlagan holda muloqotni amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lib, qanchalik uzoqlik yoki yaqinlik xushmuomalalikning darajasini belgilashga xizmat qiladi.

**Hurmat:** variantlar bering. Tanlash huquqi, qaror qabul qilishda mustaqillik tamoyillarini saqlash uchun bittagina variantning o'zi kamlik qiladi.

**Do'stlik:** hamdardlik bildiring. Bunda suhbatdoshning hissiyotlariga nisbatan o'z munosabatini bildirish nazarda tutilgan.

Ushbu qoidalar har qanday o'zaro ta'sirida ma'lum darajada ifoda etilgan bo'lsada, turli madaniyatlarda ularning muhimlik darajasi turli bo'lishi mumkin. Lakoffning fikriga ko'ra, xushmuomalalik-"odamlar o'rtasidagi munosabatlarga xos bo'lgan kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziddiyat va qarama-qarshilik xavfini kamaytirish orqali o'zaro munosabatlarni yengillashtirishga qaratilgan shaxslararo munosabatlar tizimi" dir.[Lakoff 1973:234].Shunday qilib, Robin Lakoff ilk bor xushmuomalalikni sof pragmatik yondashuv asosida o'rgangan olim hisoblanadi.

XX asrda kundalik nutq tahliliga qiziqish oshgani natijasida vujudga kelgan til falsafasi taraqqiyotining yo'nalishlaridan biri nutq aktlari nazariyasi (Vingenshteyn 1985) bo'lib,uning asoslari J.Ostin [Austin 1962] tomonidan qo'yilgan va keyinchalik J.Serl tomonidan rivojlantirilgan. [Searle 1969] Nutqiy akt- "maqsadli nutq harakati", unda "so'zlovchi-adresant va adresat-tinglovchi ishtirok etadi, ular bir-biri bilan kelishilgan ijtimoiy rollarning tashuvchisi sifatida ishlaydi" [Арутюнова 1998: 412]. Nutqiy akt to'liq namoyon bo'lishida quyidagi 3 ta bosqich bosib o'tiladi:





1) Lokutiv akt: til qoidalariga muvofiq jumla tuzish va shunchaki aytish yoki talaffuz qilish(locution);

2) Illokutiv akt: aytilayotgan gap ma`lum bir maqsadni ko`zlagan holda adresatga yo`naltirilishi(illocution);

3) Perlokutiv akt: ko`zlangan natijaning amalga oshishi (perlocution) [Austin 1962: 101-110; Арутюнова 1998: 412]. Serl ta`limotiga ko`ra, direktiv nutq akt "o`z tomonidan nutq so`zlovchini tinglovhi tomonidan...biron bir ish qilishga: ba`zida bu ish agressiv tarzda yoki aksincha taklif tarzidagi urinish...majbur qilish"dir. Serl turli direktivlarni- iltimos, ko`rsatma, buyruq va maslahatni turlicha tavsiflaydi. Xususan, iltimos nutqiy akti uchun quyidagi qoidani qo`llaydi:

a) taklif mazmuni qoidasi: bu qabul qiluvchining kelajakdagi harakati haqida;

"Please do come and visit us to see our terrific pupils in action"( Lincoln Minster School)

"Marhamat, keling va bizning ajoyib o'quvchilarimizni o`quv jarayonida ko'rish uchun tashrif buyuring"

b) tayyorgarlik qoidalari:

1. adresat harakatni amalga oshirishga qodir, so`zlovchi bunga ishonadi;

2. ikkala ishtirokchiga ham adresat harakatni o`zi amalga oshirishi aniq emas;

"Our priorities are simple: we want our pupils to be happy and to achieve – and in that order. It is important that they enjoy their time with us and develop an appetite for learning that stays with them for life. They are also more likely to achieve if they are happy, so this will always be at the heart of all that we do"( Lincoln Minster School)

-Bizning ustuvor vazifalarimiz oddiy: biz o'quvchilarimiz baxtli bo'lishlarini va muvaffaqiyatga erishishlarini xohlaymiz. Muhimi - ular biz bilan o'tkazgan vaqtlarini zavq bilan o'tkazishi va ular bilan umr bo'yi birga bo`ladigan o'rganish ehtiyojini rivojlantirishidir. Agar ular baxtli bo'lsa, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ko'proq bo`ladi, shuning uchun ham bu har doim biz qilayotgan barcha ishlarimizning markazda turadi.

d) samimiylik qoidasi: so`zlovchi adresatdan harkatni amalga oshirishni xohlaydi; "We therefore focus on inspiring pupils academically, with a broad curriculum taught by well-qualified subject experts, as well as offering a rich programme of co-curricular activities. Through these areas, pupils develop key personal characteristics, attitudes and behaviours that we hope will equip them to be happy and successful throughout their lives"( Lincoln Minster School)

-Shu sababli, biz o'quvchilarni akademik jihatdan ilhomlantirishga e'tibor qaratamiz, bunda malakali fan mutaxassislari tomonidan o'qitiladigan keng o'quv dasturi, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarining boy dasturini taklif etamiz. Ushbu sohalar orqali o'quvchilar asosiy shaxsiy xususiyatlar, xulq-atvor va xatti-harakatlarni rivojlantiradilar. Biz umid qilamizki, ularni hayotlari davomida baxtli va muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi







e) jiddiy qoida: qabul qiluvchini harakatni amalga oshirishga undashga urinish.  
[Mirxodjayeva F, 2022:286]

“I feel privileged to be part of this wonderful community and would be glad to welcome you for a visit”

- Men ushbu jamoaning bir qismi ekanligimdan faxrlanaman va sizning tashrifingizdan juda ham xursand bo'laman (Misollar Lincoln Minster School Britaniya maktabi saytidan direktorning murojaat nutqidan olingan). Biz tahlil qilayotgan ma'muriyat murojaatlari ham ayni shu qoidalar izidan boradi.

Nutqiy aktning ham boshqa lisoniy hodisalar kabi yaratuvchanlik imkoniyati bo'lib, u matn tuzish, murakkab muloqot birligi bo'lmish diskursni tarkib toptirish vazifalarini bajaradi. Nutqiy aktning bu turdagi vazifasini aniqlash uchun intension tahlil, ya'ni nutqiy harakat maqsadini aniqlashga qaratilgan tahlilga murojaat qilamiz. [Сафаров III, 2008: 80]. Bunday tahlilda muloqot jarayonida voqealanadigan nutqiy harakatning so'zlovchi maqsadiga bog'liq jihatlari o'rganiladi. Ushbu tahlil asoschilaridan (Searl 1983) farqli o'laroq Kiev Universiteti professori O.G.Pocheptsov intensiyani ikki qismga: “boshlang'ich intensiya” va “natijaviy intensiya”ga ajratishni taklif qiladi.[Сафаров III, 2008:81]

“I hope our website gives you a sense of what a busy, purposeful and ambitious school Charterhouse is, and an understanding of the values that we share, but it is no substitute for a visit. I do hope we see you here soon.” (Dr. Alex Peterken, Head)

“Umid qilamanki, bizning veb-saytimiz sizga gavjum, maqsadli va shuhrati baland Charterhouse qanday maktab ekanligini va biz baham ko'radigan qadriyatlarni tushunishga yordam beradi, ammo bu tashrifning o'rnini bosa olmaydi. Umid qilamanki, sizni tez orada bu erda ko'ramiz”

Ushbu misolda bir qarashda nutq egasining maqsadi tinglovchini maktabga tashrif buyurishga ko'ndirish ekanligini tushunamiz. Yoki maktab haqida ma'lumot berish maqsadini anglab yetamiz. Mana bu boshlang'ich intensiya hisoblanadi. Natijaviy intensiya esa aslida boshlang'ich intensiyaning uzviy davomi, ya'ni asl maqsadni nazarda tutadi. Yuqoridagi misolda natijaviy intensiya tinglovchining shunchaki maktabga tashrif buyurishiga erishish emas, balki farzandini o'qitish uchun eng maqul maktab sifatida shu maktabni tanlashiga erishishdan iboratdir.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'rganilgan maktab ma'muriyati murojaatlari matnlarining asosiy maqsadlari kerakli auditoriya e'tiborini jalb qilishda iborat bo'lib, potentsial mijozlar, qabul qiluvchilar yoki maqsadli auditoriya tahlil qilinayotgan mikromatnlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lim muassasalari ma'muriyati murojaatlari reklama matnlarining asosiy xususiyatlari va strategiyalari (mahsulot yoki xizmatni sotish xohishi, uning afzalliklari va afzalliklari tavsifi, mijoz va agent rovida ishtirokchilarning muloqoti, vositachilik vaqt va makon va boshqalar)ga mos keladi. Bunda namunadagi matnlar ta'lim muassasalarni aniq reklama qiladi va o'zida faktik ma'lumotlarni mujassam etadi. Bundan tashqari, barcha bu turdagi matnlar





maktab ta'lim muassasalarining veb-saytlarida joylashgan va shuning uchun ham adresant va adresat aloqalar juda aniq Internet rejimida amalga oshiriladi. Shuningdek, tahlil qilingan mikromatnlarni pragmatik nuqtai nazardan ko'rib chiqish ingliz tilini o'qitishning ilmiy va amaliy uslubiy sxemalari sifatida rivojlanishi uchun haqiqatan ham muhim vazifa bajaradi. Bunday turdagi mikromatnlar ingliz tilini mazmuniy jihatdan o'rganishda va o'qitishda haqiqiy (authentic) material sifatida foydalanishga tavsiya etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin, J. (1962). *How to Do Things with Words*. Cambridge, MA: Harvard University Press
2. Esanova K. *Pragmalinguistic studies in linguistics*. – Almaty: Académie Internationale CONCORDE, 2017
3. Klein, Lawrence (1984). "The Third Earl of Shaftesbury and the Progress of Politeness". *Eighteenth-Century Studies*. **18** (2): 186-214. [doi:10.2307/2738536](https://doi.org/10.2307/2738536). JSTOR 2738536
4. Lakoff R. T. The logic of politeness: or, minding your P's and Q's // *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society* / C. Corum, T. C. Smith-Stark, A. Weiser (eds.). Chicago, Illinois: Chicago Linguistic Society, 1973. P. 292–305.
5. Mirxodjayeva F. Xushmuomalalikni o'rganishda asosiy yondashuvlar. *O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari*, 2022, [1/9] ISSN 2181-7324.
6. Qurbonova M, Yo'ldoshev M. *Matn tilshunosligi*. – Toshkent: "Universitet", 2014
7. Taubayev Z.T. *Eponyms in political discourse: pragmalinguistic aspect*. Ph.D. dissertation abstract. – Almaty, 2019.
8. Velasco M. S. Advertising English and ESP: the British Cosmopolitan ad as an example of 'specialised' text. *IBÉRICA* 12/2006
9. Арутюнова Н.Д. *Язык и мир человека*. 2-е изд., испр. - М.: Яз. рус. культуры, 1998
10. Дьякова Е.Ю. *Поликодовый текст в британском рекламном дискурсе сферы образования: Автореф. дисс. канд. филол. наук.* / Е.Ю.Дьякова. Воронеж, 2011.
11. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Тошкент, 2008
12. Ухова Л.В. *Теоретические проблемы исследования эффективности рекламного текста: Автореф. дисс. канд. филол. наук.* / Л.В.Ухова. Ярославль, 2013
13. *Формановская 1979 - Формановская Н.И. О функциях речевого этикета и его единиц // Русский язык за рубежом*, 1979





14. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –  
Тошкент: “Академнашр”, 2013

### REFERENCES

1. Abingdon School URL: <https://www.abingdon.org.uk>
2. Charterhouse School URL: <https://www.charterhouse.org.uk>
3. Hampshire School of Chelsea URL:  
<https://www.thehampshireschoolchelsea.co.uk/>
4. King Edward's School Witley URL: <https://home.kesw.org/>
5. Lady Eleanor Holies School URL: <https://www.lehs.org.uk/>
6. Lincoln Minster School URL: <https://www.lincolnminsterschool.co.uk/>
7. Royal Russell School URL: <https://www.royalrussell.co.uk//>
8. Royal Grammar School URL: <https://www.rgshw.com/>
9. Royal High School Bath URL: <https://www.royalhighbath.gdst.net/>
10. Clifton School URL: <https://www.cliftoncollege.com>

